



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH
VAZIRLIGI

**“БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИ ВА
ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ
МЕРОСИНING АҲАМИЯТИ”**

мавзусидаги республика онлайн

илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАРИ



*Alisher
Navoiy*

580

**5 февраль 2021 йил
Бухоро**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ
ЮКСАЛИШИ ВА ЁШЛАР
ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ
МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ**

мавзуидаги республика онлайн илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил 5 февраль. Бухоро

Sabukashligim ayni idbordin,

Qadimni yuz ostida “dol” ayladi. [Навоий, 1990:518].

Arab alifbosi harflaridan qiyos usuli orqali lirik qahramonning qadi “dol” harfiga tenglashtiriladi. Shoir bu xil qiyos usuli tufayli oshiq ko`rinishini harflar shakli vositasida aniqroq va ta`sirchanroq tasvirlashga erishgan.

Xulosa sifatida shuni ta`kidlash joizki, inson ruhiyati, ma`naviy va botiniy haqiqatlari bilan har tomonlama chuqur qiziqqan barcha ulug` shoirlarga o`xshab, A.Navoiy inson qalbi mohiyatini yoritishda tarje`band janridan foydalangan. Shoir bu janrni yozishda Sharq poetikasidagi an`anaviy badiiy san`atlardan mahorat bilan foydalangan. Bu san`atlar faqat shoirlik mahoratini ko`rsatishga emas, balki o`sha janr markazida bo`lgan ko`ngil atalmish ulug` ma`naviy olam sir-asrorlarini yuzaga chiqarishga ham xizmat etgandir. Umuman, Navoiy tarje`bandlarini o`rganish, uning badiiy tasvirlarini tadqiq etish, birinchidan ulug` shoir she`riyatining botiniy xususiyatlari va sir-asrorlarini ochishga xizmat qilsa, ikkinchidan, Navoiyning san`atkorlik mahoratini yanada keng va chuqur yoritishga yaqindan yordam beradi. Zero, Navoiy shu janrdagi obrazlar tasvirida inson qalb kechinmalarini, dard va kechinmalarini qanchalik mukammal bilib ish yuritganlini to`la namoyish eta olgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Бобоев Т. Адабиётшуносликасослари.— Т.: "У`збекистон", 2002.— Б. 24.
2. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. Бадоеъ ул-васат. — Т.: Фан, 1990. — Б. 307.
3. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 3-том. Ғаройиб ус-сиғар. — Т.: Фан, 1988. — Б. 327.
4. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 3-том. Ғаройиб ус-сиғар. — Т.: Фан, 1988. — Б. 471.
5. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 18-том. Девони Фоний. — Т.: Фан, 2002. — Б. 16.
6. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 19-том. Девони Фоний. — Т.: Фан, 2002. — Б. 312.
7. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 4-том. — Т.: Фан, 1989. — Б. 448.

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ

Hojiyeva Nigina,

Buxoro davlat universiteti o`qituvchisi

Buyuk mutafakkir, so`z mulkining sultoni Alisher Navoiy o`z asarlarida xalqparvarlik g`oyalarini ilgari surgan. Navoiy dastlab adabiyotga shoir sifatida

kirib kelgan va adabiyotda she'riyat qasrini qurdi, g'azal mulking sultoniga aylandi, keyinchalik qator dostonlar yaratdi, adabiyotshunos, tilshunos, davlat va jamoat arbobi sifatida dunyoga tanildi. Alisher Navoiy o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli ko'rish ruhi bilan qalam tebratdi. U mehnatkash, pok, halol, o'z aql-farosati, yaxshi odamlar qalbidagi zakovat va saxovat, samimiyat, sevgi-sadoqat, fidoyilik, inson baxti, xalqlarni, mamlakatlarni do'stlikka, hamkorlikka, ezgulikka chaqirish, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini ulug'ladi. Alisher Navoiyning yaratgan asarlarida millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, yurtni obodonlashtirish, ilm, san'at va adabiyotni rivojlantirishni, Vatanga muhabbat, mehnatga sadoqat, axloqiy yuksaklikka intilish, go'zallik va muhabbat, mehr va muruvvat, shaxs erkinligi, ijtimoiy adolat uchun kurash g'oyalari bilan yo'g'rilganligidir.

Alisher Navoiy o'z asarlarida inson umrini fasllarfa qiyos etganlar. "Xamsa" tarkibidagi birinchi doston "Hayrat ul abror" dostonida yigitlik bahorning latofati fasllar ichida ehg bahor fasli bilan qiyoslanadi. Inson umrining xazonrezgi davri bilan qarilikka xos holatlar kuz fasliga nisbat berib tasvirlanadi. Tabiatga xos holatlar insonumrining fasllariga nihoyatda o'xshash. Fasllar ramzi bo'lgan turli xildagi ranglar: yashillik – uyg'onish, sarg'ayish – so'lg'inlik, qarilik ma'nolarini ifoda etadi. Buyuk so'z san'atkorining maqolatda tabiat tasvirlarini juda bir chiroyli tarzda nafis mahorat bilan falsafiy ma'nolarga boy poetik manzaralarini jilolantiradi: quyoshning erta tongda shaffof nurlarini sochib chiqishi, bahorning ilk kunlarida yog'ayotgan yomg'irning qay darajada musaffoligi, tong shabbodasining go'yo farroshlik qilib "suv sepilgan" bog'ni "supurgani", bog'ni turfa gullar atri tutgani; bulut suv sepuvchi bo'lgani va osmon go'yoki dunyo bog'ini supurib, unga suv sepdi, unda xushbo'y rayxonlar nish ura boshladi. Tabiat atrofga ora berib, asta-sekin daraxtlarda nafis yaproqlar, gullar paydo qiladi. Keyinroq yashil libosning tugmalaridan – mevalar paydo bo'ladi. Bog' mevaga to'ladi. Shoir buni quyidagicha izohlaydi:

Bog' o'lub ashjaru samardin to'la,

Komildek fazlu hunardinto'la.

Balki bo'lub ravza gulistonidek,

Yo'qki xiradmand kishi jonidek.

Shoir nazdida mevalarga to'la bog'— bog'bonning mashaqqatli mehnati samarasi, ayni damda g'arq pishgan mevalar fazlu hunarni to'la egallagan komil insonlarga o'xshaydi.

Ma'lumki, milliy tilning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berishda buyuk shoir asarlari tilini tadqiq etish, shoir qo'llagan lug'aviy birliklar va ular orqali o'zbek tilining leksik zahira imkoniyatlarini aniqlash alohida ahamiyatga ega. O'zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilashda Navoiy she'riyati o'zbek tili

tadqiqotchilari uchun barcha davrlarda ham muhim manba bo`lib kelgan. Shu o`rinda Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida ham tabiat tasviri tasviriga oid muhim jihatlarni ko`rishimiz mumkin.

Jahon bog`i ko`p dilkashdir, ammo u yigitlik bahori bilan yana yoqimliroqdir. Kishining umri kecha-kunduz demay o`tsa ham yigitlikda bahor fasli o`yin-kulgi ayyomidir. Hut kirishi, sabzalarga jon bitishi bilan doim tirik va abadiy o`lmas yaratguvchi oftobni hamal sabzazori (burji) tomon yo`llab, tabiat ne`matlarini quyosh harorati bilan parvarish qilish taraddudiga tushadi. Quyidagi baytlarda bahoriy bog` tasvirini berish uchun shoir yel, bahoriy bulut(nil daryosiga g`arq bo`lgan fil misoli)kabi leksik birliklardan foydalangan. Masalan:

*Bu yel Iso anfosin isbot etar
Ki, bog` ichra ihyoi amvot etar.
Bahoriy bulut pildek bedarang,
Qilur jilva har yon, bori pilrang.
Rutubat aro go`yo ul xayli pil,
Bo`lubtur bori g`arqi daryoyi Nil.
Gar andoq emas, bas nedur, ayt bu
Ki, har yon alardin tomar qatra su(v)
Dema qatrakim, poyaboron degil,
Dema pil, abri bahoron degil.
Chu abri bahori sochib durri nob,
Sabo kojidin rangi gardun kibi.*

Baytning mazmuni: – xuddi Muso payg`ambar dam urganidek, subhidamning ruhparvar nasimi esib, suvi qochib qolgan daraxtlarga jon bag`ishlaydi. Bu tong shabbodasi bog` ichidagi o`liklarni tirgizish bilan Iso nafasiga o`xshagan hayotbaxshligini isbotlaydi. Fildek to`xtovsiz yuradigan bahor bulutlari xuddi fil singari har tomonni qoplab oladi. Rutubat ostida qolgan shu fillar to`dasi (bahor buluti) go`yo Nil daryosiga g`arq, bo`lmish fillarni eslatadi. Agar shunday bo`lmasa, aytchi, bu nimadir? Axir har tomonga ularning badanidan qatra-qatra shabnam tomib turadi-ku. Bularni qatra emas, yomg`ir sollari degin; fil emas, bahor bulutlari degin. Bahor bulutlari dur tomchilarini sochishi bilan chamanzorlar obi-tobiga kelib, yashnab ketadilar. Keyingi baytlarda gap bahoriy chamanzordagi yashil maysa va gullar xususida boradi. Sabza, lola, sunbul, sarv, binafsha, nargis kabi:

Ochib yer ragin **sabzaning nishtari**,
Chiqib qon kibi **lolai ahmari**.
Chaman aylabon hullasin rang-rang.
Tugub hulla xil`at uchun tang-tang.
Giyah bog` aro chinioyin bo`lub

Ki, har gul anga lu‘bati Chin bo`lub.
Bo`lub **sunbuli** targ`a sarv uzra pech,
Qadu zulfdin bo`lmayin farqi hech.
Gul atrofidin shoxi sunbul chiqib,
Yuz oldidin andoqki kokul chiqib.
Binafsha boshin andin aylab quyi.
Ki, ostig`a oning kirib mul suyi.
Agar topmasa ul su birla gazand,
Nega raxt erdin ko`tardi baland.
O`zin tifli **nargis** qadahxo`r qilib
Ki, limu terisini sog`ar qilib.
Va yo limuyi bo`rki topti shikast
Ki, davrin biyik qildi, uchini past.
Chiqib savsan oshufta majnun kibi,
Sabo kojidin rangi gardun kib.

Baytlar mazmuni: – Sabzalarning nishtarlari yerni yorib chiqadilar qizil lolalar xuddi qon kabi hammayoqni bo`yaydilar. Go‘yo qonda fasod paydo bo`lsa kishi qorayib ketgani kabi bu faslda ko`ksida qora dog`lari bo`lgan lolalar paydo bo`ladi. Chaman liboslarini rang- barang qilib, xil‘atlarini boshdan-oyoq gul bilan bezaydi. Bog`dagi giyohlar Chin tabiatini namoyish qilgani kabi, u yerdagi har bir gul Chin go`zallarini eslatadi. Yashnab ko`karayotgan sunbullarning sarvga chirmashib turishi go`zallar vujudida turgan o`ram-o`ram sochdan farq qilmaydi. Gul atrofidan sunbul novdalarining chiqib turishi yuz atrofidagi soch kokillariga o`xshaydi. Gunafshaning tagiga suv sharobi kirgani uchun uyatdan boshini quyi solib olgan. Agar u suvdan ho`llanmagan bo`lsa, nima uchun liboslarining etagini qayirib oldi? Yosh nargis dalada may ichishga o`rganib, limu po`stlog`idan piyola qilib olibdi. Va yoki limu rangli ezilib qoldimikin, chetini qayirib, ichini chuqur qilib qo`yibdi? Majnun kabi shalvirab yotgan gulsavsarning rangi tong shabadasi zarbidan xuddi osmonga o`xshab ko`karib ketibdi. Yuzidan xotirjamlik ko`rinsa ham, qattiq zavqqa berilishi natijasida u behol bo`lib qolgan.

Navoiy asarlarida tabiat tasviri bilan bog`liq holatlar bahoriy tasvirga oid leksik birliklarni semantik va uslubiy jihatdan darajalash mumkin. Uyushtiruvchi leksik-semantik birliklar, yetakchi leksik-semantik guruh, ma‘naviy guruhni aralash holda qo`llash kabi. Bu leksik birliklar yel va bulut; gullar va o`simliklar: sabza, lola, sunbul, sarv, binafsha, nargis, gul(atirgul), nastarin. Har bir so`zning qo`llanishi dostonida tasodifiy emas. Buni shoirning so`z qo`llashdagi va tasvir yaratishdagi o`ziga xos mahorati sifatida e`tirof etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Насрий баёни. www.ziyo.uz.comkutubxonasi.
2. Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли бош бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари: НДА. – Тошкент, 2001.
3. Алишер Навоий. Қомусий луғат. II жилд. – Тошкент: Шарқ, 2017.
4. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: ДДА. – Тошкент, 1990.
5. Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. Тошкент: – ФАН, 1991;

ALISHER NAVOIY G'AZALLARI NASHRIDAGI AYRIM TAFOVUTLAR HAQIDA MULOHAZALAR

Azimjon Hamidov,

Matnshumosli va adabiy manbashunoslik
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti (BuxDU)

Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj o'z davridayoq mavjud bo'lib, keyingi asrlarda ham kuchayib bordi. Buni taniqli ijodkor asarlarining kitobat qilinishi, toshbosma nashrlarining amalga oshirilishi va o'tgan asrdan e'tiboran ko'plab nusxalarda nashr qilinishi ham dalillaydi. Shoir lirik merosining ilmiy-taqidiy matni yaratilib, uning akademik va ommabop nashrlari XX asrda bir necha bor chop etildi. Bular orasida 20 jildlik “Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami”ning 1-6-jildlari alohida ahamiyatga ega. Undan Navoiyning dastlabki devonlari va “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti ham o'rin olgan. Shoirning “Badoye' ul-bidoya” devonidagi g'azallarining “Xazoyin ul-maoniy”ga ham kiritilishi jarayonida muallif o'z tahriridan o'tkazganini ham e'tirof etadi [Navoiy 1988:], shuningdek, taniqli navoiyshunos A.Hayitmetov, matnshunos A.Erkinovlar ham shoir tomonidan lirik merosi shunday tahrirlarga bois bo'lganini ta'kidlashadi [Hayitmetov 1970: 152-155; Erkinov 1997: 9]. Biz ayni masalani “Badoye' ul-bidoya” devonidagi g'azallarining “Xazoyin ul-maoniy”dagi nashrlaridagi ayrim tafovutlar misolida o'rganishga harakat qilamiz. Buning uchun “Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami”ning 1-jildidagi g'azallar matni 3-jildidagi matni bilan qiyosiy o'rganiladi.

Alisher Navoiy g'azallari nashrlarining matniy tafovutlari faqatgina shoir tahrirlarining natijasi bo'lmay, ular kotiblar tomonidan o'zgartirilgan holda ko'chirilishi, arab yozuvidan joriy yozuvga aylantirilganda, asliyatda bir harf bilan farqlanuvchi shaklan yaqin so'zlarning turlicha o'qilishidan kelib chiqqan bo'lishi

<i>Murodova Gulchehra</i> “HAYRAT UL ABROR” DOSTONIDAGI SO‘Z TA‘RIFI BOBI NASHRLARINING QIYOSIY TAHLILI... ..	68
<i>Шоҳиста Низомова</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ШЕЪРИЯТИДА СУВ ВА ОЛОВ ОБРАЗИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ.. ..	71
<i>G. S.Omarova, M. R. Vozorbayeva</i> “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA MUALLIF DADIY NIYATINING IFODALANISHI.....	76
<i>Ражабова Маърифат</i> САМАНДАР – АБАДИЙ ҲАЁТ ТИМСОЛИ.....	80
<i>Зулайҳо Раҳмонова</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЁТИДА ТАВБА ТАЛҚИНЛАРИ... ..	84
<i>Sadullayeva Shahlo, Shamsiddinova Sitora</i> "LISON UT-TAYR" DOSTONIDA HAYRAT VA FAQR-U FANO VODIYLARINI TASVIRLASHDA TAMSILIIY HIKOYATNING AHAMIYATI.	89
<i>Safarova Shahlola</i> “SABB‘AI SAYYOR” DOSTONI HAMD BOBINING G‘OYAVIY –BADIY TAHLILI... ..	94
<i>Hilola Safarova, Mohigul Ismatova</i> ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI.....	98
<i>Sayliyeva Zarina</i> “HIRIY JON, BADANDIR XUROSON ANGA...”.....	100
<i>G. Sayidova</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI O‘XSHATISHLARNING TASNIFI... ..	104
<i>H. H. Temaeв</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ФАЛСАФАСИДА ИНСОН МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИ.	107
<i>Xudoyorova Nigora</i> NAVOIY NAZMINING JILOLARI.....	111
<i>Д.К.Эргашева</i> ПОЭТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ.....	113
<i>Ergasheva Naima</i> ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA TANOSUB SAN‘ATI.....	118
<i>Ҳусниддин Эшонқулов</i> МАЪШУҚА ВА ОШИҚ ҲОЛИГА ХОС ИСТИОРАЛАШГАН ЭПИТЕТЛАРИНИНГ ҚОФИЯЛАНИШИ.....	120
<i>G. Sh.Qobilova</i> “SAB‘AI SAYYOR” DOSTONINING ILMIIY-TANQIDIY MATNINI YARATISHDA ASOS BO‘LGAN MANBALAR.....	124
<i>Дилрабо Қувватова, Зарнигор Соҳибова</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ОҒАҲИЙ ШЕЪРИЯТИДА БАҲОР ТАСВИРИНИНГ МУШТАРАК ЖИҲАТЛАРИ... ..	126
<i>Halimova Shahlo</i> ALISHER NAVOIY TARJE‘BANDLARINING TASVIR MONIYATI... ..	130
<i>Hojiyeva Nigina</i> АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ..	133
<i>Azimjon Hamidov</i> ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI NASHRIDAGI AYRIM TAFOVUTLAR HAQIDA MULOHAZALAR.....	137
<i>Vaxobova Shoxida</i> “MUNSHAOT” MAKTUBLARIDA NAVOIY QARASHLARINING AKS ETISHI.....	140